

## O'ZBEK TILI DARSLARINI O'QITISHDA NOANANAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Isayeva Umida Akramovna  
191 - sonli umumiy maktabi (rus tiliga ixtisoslashgan)  
O'zbek tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga uzviyylashtirilgan Davlat ta'lif standartlari asosida bilim berish asnosida kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni shakillantirish o'qituvchidan kuchli bilim, yuksak kasb mahorati va tinimsiz mehnat hamda zamonaviy o'quv texnologiyalarini o'zlashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish, mustaqil fikirlash va o'z mulohazalarini yozma bayon qilish malakalarini shakllantirish, yozma nutqiy rivojlantirish omillari eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Nutq san'ati, noa'nanaviy ta'lif, faollik, ona tili, o'zlashtirish malakasi

**Abstract:** The formation of the necessary knowledge, skills and abilities in the teaching of students in secondary schools on the basis of integrated State educational standards requires a strong knowledge, high professionalism and tireless work and mastery of modern teaching technologies. One of the most important issues in the teaching of the native language, in particular, is the development of students' written literacy, the formation of skills of independent thinking and written expression of their opinions, the development of written speech.

**Keywords:** Speech art, non-traditional education, activism, native language, mastery skills

Tarixdan m`a'lumki, yozuvning paydo bo'lishi insoniyat taraqiyotida muhim o'rinn tutadi. Sababi yozma manbalar orqali avloddan- avlodga boy ma'naviy merosning o'rishi va saqlanishi vujudga keladi.

Demak, yozma nutq san'ati ham ko'hna va boy tarixga ega. Ota-bobolarimiz, ulug' alomalarimiz azal- azaldan xattotlik ilmini o'zlashtirib, og'zaki nutq va yozma nutq uzviyiligini ta'minlab kelishgan.

Sharq yozuv tarixida yozma nutqning ahamiyatiga katta e'tibor berilgan.

Chunonchi, bugungi kunda umumta'lim maktablarida ona tili fanlarini o'zlashtirishda o'quvchilarning yozma nutq malakalarini oshirishda yangi pedagogic texnologiyalar, boy tajribalar va qiziqarli o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali kutilgan natijalarni olish mumkin.

O'quvchilarning o'z fikrini yozma bayon qilishida ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi.

Bunda:

- fikrning mantiqiy izchiklikda ifodalanganligini aniqlash;
- tasvirining mavzuning muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

- imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash asosiy omillar hisoblanadi, Demak, yozma nutq malakasini hosil qilish ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Zero, maktab ona tili ta'limining bosh maqsadiga ko'ra dars mashg'ulotlari o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda, to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakilantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak. Bu muhim vazifani amalgalashda ona tili ta'limi jarayonida tashkil etiladigan turli usullar orqali yozma malakalarini oshirishga xizmat qiladigan pedagogic texnologiyalarning o'ziga xos o'rni bor.

O'quvchilarda yozma nutq malakalarini oshirishda «Eslab qol», «Xato top», «Izoh ber», "Davom ettir», «Tinish belgini qo'ying», «Jumlanı to'g'ri tuz» , «Donolar bisotidan» kabi ta'limi o'yinlardan unum foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

«Xato top» o'yini. Bunda o'quvchilar guruh bo'lib ishlasa maqsadga muofiq bo'ladi. Har bir guruhga xato yozilgan so'zlar berilgan matnlar tarqatildi. Matn tanlashda o'tilgan mavzuni inobatga olish kerak. Masalan : «Uyushiq bo'laklari» , «Undalmalar» yoki «Unli tovushlar» mavzulari asosida matnlar tayyorlash mumkin.

Guruhanlarning xato yozilgan so'zlarni yoki tinish belgilarini aniqlaydilar. Belgilangan vaqtadan so'ng marnlar o'zaro almashinib, guruhanlarning o'zaro xatolarini ko'rib chiqadilar. Qaysi guruhan qanday natijaga erishganini ekranda berilgan to'g'ri matn orqali bilib oladilar. Bu usul o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yordam beradi.

Darslarni musobaqa tarzida tashkil etilganda bu o'yinda foydalanish mumkin.

«Izoh ber» o'yini. Bu o'yinda «Dam olish daqiqasi»da foydalanish mumkin. Oq qog'ozda boshqa tillardan o'zlashtirilgan yoki ma'nosi qiyin so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar yozib qo'yilib, sinf taxtasiga ilinadi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, so'zlarning izohini yozadilar.

Masalan:

Sarbon- karavonboshi

Chilvir - ingichka arqon

Ranj - ozor, alam

Kamarbasta- xizmatga tayyor.

Bunda iboralardan foydalanish ham mumkin:

Yog' tushsa yalagudek- toz

Kapalagi uchib ketdi- qo'rmoq

O'yin davomida o'quvchilarning yozma nutqda so'zlardan va iboradan unumli foydalanish malakasi oshadi.

«Davom ettir» o'yini. O'yin davomida o'qituvchi o'quvchilarning o'z tasavvurlarini yozma bayon qilishga o'rgatadi. Bu kichik hikoya, ertak yoki bog'lanishni matn bo'lishi mumkin.

O'qituvchi mavzu yozilgan qog'ozni tarqatadi. O'quvchilar partalarda o'tirgan holda oldindan orqaga qarata mavzu asosida bittadan gap yozib, qog'ozni uzatadi. O'quvchilar o'zlaridan oldin yozilgan fikrlarni to'ldirib, mavzuga mos gaplarni yozadilar.

Masalan: O'zbekiston - Vatanim manim.

O'zbekiston men tug'ilib, o'sgan diyor.

Men o'z Vatanimni sevaman.  
O'zbekiston serquyosh, go'zal diyor.  
Vatanim gullab- yashnamoqda.  
O'zbekiston jahonga yuz tutmoqda.  
Men o' z Vatanimdan faxrlanaman.

Bu usul o'quvchilarni hamjihatlikka tarbiyalaydi. Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi.

Darsning aralash turlarida, takrorlash darslarida bu ta'limiy o'yindan unumli foydalanish mumkin. Musobaqa usulda tashkil qilish yaxshi samara beradi.

«Jumlani to'g'ri tuz» texnologiyasi. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarni uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatish hamda yozma va og'zaki nutqni ravon va chiroyli bo'lishiga erishish asosiy omil hisoblanadi.

O'qituvchi jumlalar chalkash bo'lgan gaplarni proyektor orqali ekranda namoyish qiladi va o'quvchilar jumlalarni to'g'irlab yozadilar.

Masalan:

Mashina chang ko'tarildi yurib ketgach, orqasidan.

Mashina yurib ketgach, orqasidan chang ko'tarildi.

Ba'zi she'rlardagi jumlalarda ro'y bergan o'zgarishlar she'riy qofiya yoki ohangdorlik talabi ekanligi ham inobatga olinib, o'quvchilarga tushuntiriladi.

«Ma'nodoshini top» o'yini. Bunda oq qog'oz va markerdan foydalanib o'zin tashkil qilinadi. O'quvchilar sinf taxtasida navbat bilan oq qog'ozdan berilgan so'zning ma'nodoshini topadi.

Masalan:

Yozuvchi - adib, muallif, avtor.

Qadimi - ko'hna, osori- atiqa, eski, azaliy.

Bajarmoq - ijro qilmoq, amalga oshirmoq, ishlab chiqmoq.

Yuz - aft, bashara, chehra, oraz.

Bunda o'quvchining so'z boyligi oshadi. Yozma nutqda takroriy g'arizliklarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatiladi. Nutqning go'zal bo'lishiga e'tibor qaratiladi. So'zni to'g'ri qo'llash malakasi rivojlanadi.

«So'zga so'z» o'yini. Bu usulda qarama- qarshi so'zlarni o'zaro keltirish bilan yoki so'zning oxirgi harfiga so'z topish kabi yo'l bilan tashkil qilinadi.

Bu jarayonda koptokdan foydalanilsa, o'quvchilarda kayfiyat ko'tariladi, jismoniy harakat orqali dam olish daqiqasi tashkil qilish mumkin.

Masalan: 1-o'quvchi: "Oq" deb koptokni ikkinchi o'quvchiga otadi, ikkinchi o'quvchi "Qora" deb koptokni oshiradi. Keying o'quvchi oxirgi harf "a" ga "Achchiq" deb boshlasa, keying o'quvchi "Shirin" deb javob beradi. Navbatdagi o'quvchi "Nafis" deb koptokni oshirsa, keying o'quvchi "Dag'al" deb davom ettiradi. Bu o'zin o'quvchilarning topqirlirkka, chaqqonlikka va lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Yozma nutqda bu so'zlardan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Ona tili fanidan dars jarayonlarida o'quvchining yozma savodxonligi, imlo qoidalarini mukammal o'zlashtirganligi va yozma nutqning rivojlanganligini hamda husnixat bilan

yozishini inobatga olib, yangi pedagogic texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil etish kelajakda yetuk intellectual barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Расурова, Р. Б. (2020). Она тили фанини укитишида иктидорли укувчиларни аниклаш ва уларнинг нутқ маданиятларини оширишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш. *Ta'lim, fan va innovatsiya*, 1(2), 37-40.
2. Усербай, Б. (9102). Мустакил таълим - талаба билимининг асоси. Туркий халлар фольклори, адабиётшунос уамда тилшуносликнинг ауамиятли масалалари: Халқаро конференция, 1(1), 105-108.
3. Кучкоров, (2020). Жавдат ва унинг Самарканд адабий ҳётида тутган урни. *ИНТЕРНАУКА*, 13(142), 89-90.
4. Кучкоров, X., X., (2020). Личность в системе человеческих общение и педагогических взаимоотношений. *Innovative achievements in science*, 439-441.
5. Baykabilov, U. A. (2020). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari. *Science and Education.*, 1 (Special Issue 2), 51-56.
6. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida ijodkor tarjimaiholini o 'rgatish xususida. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
7. Jumaniyozov, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. *Science and Education*, 1 (Special Issue 2).
8. Хсанзода, К. Х. (2020). Жавдат ижодида панд-ахлок мавзууси ва унинг ёш авлод тарбиясидаги урни. *Science and Education*, 1(2).
9. Байзаков, Ж. А. (2019). TYKi халыктарды дастандарындагы лттык ерекшелжтер. Филология уэм оны оцыйтуу тарауларындагы фундаменталь уэм инновациялыц изертлеулер, 35-37.